

Date: 3rd November-2025

MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA TIBBIY TURIZMNING AHAMIYATI

Talipova Malikaxon Xusan qizi

mlktalipova@gmail.com

+998946402411

Annotatsiya. Bugungi kunda tibbiy turizm yo'nalishi turizmning eng daromadli turlaridan biri bo'lib, u nafaqat yuqori o'sish ko'rsatkichlarilariga ega, balki, dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari tibbiy turizmni rivojlantirishni milliy siyosatning maqsadlaridan biri sifatida qarab, sog'liqni saqlashning yangi konsepsiyasi paydo bo'lishiga ko'maklashayotgani bejiz emas. Unga ko'ra, har qanday shaxs boshqa davlatga sayohat qilib, o'z vaqtida sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatiga ega.

Kalit so'zlar. Tibbiy turizm, tibbiy sayyoh, tibbiy turizm bozori, davolanish, turizm infratuzilmasi, sog'liqni saqlash infratuzilmasi, tibbiy xizmatlar, xarajatlar.

Аннотация. На сегодняшний день направление медицинского туризма является одним из наиболее прибыльных видов туризма, который не только имеет высокие темпы роста, но и является основным фактором экономического развития многих стран мира. Неслучайно более 50 стран мира рассматривают развитие медицинского туризма как одну из целей национальной политики и способствуют появлению новой концепции здравоохранения. По его словам, у любого человека есть возможность поехать в другую страну и вовремя получить качественную медицинскую помощь.

Ключевые слова. Медицинский туризм, медицинский туризм, рынок медицинского туризма, лечение, инфраструктура туризма, инфраструктура здравоохранения, медицинские услуги, затраты.

Abstract. Today, the direction of medical tourism is one of the most profitable types of tourism, which not only has high growth rates, but is also the main factor of economic development for many countries of the world. It is no coincidence that more than 50 countries of the world see the development of medical tourism as one of the goals of national policy and help the emergence of a new concept of health care. According to him, any person has the opportunity to travel to another country and receive quality medical care on time.

Key words. Medical tourism, medical tourist, medical tourism market, treatment, tourism infrastructure, health infrastructure, medical services, costs.

Hozirgi kunda tibbiy xizmatlarning global bozori o'z infratuzilmasini (tibbiy boshqaruv, akkreditatsiya organlari, tibbiy turizm agentliklari va turoperatorlar) bilan shakllantirib ulgurgan. MTA (Medical Tourism Association) – Xalqaro tibbiy turizm assotsiatsiyasining songgi ma'lumotlariga ko'ra, har yili 14 millionga yaqin sayyoh tibbiy



Date: 3rd November-2025



yordam olish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qiladi²⁷. GMA (Global Market Insights) – Global bozorlar tadqiqot markazining olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, tibbiy xizmatlar bozori hajmi 2023-yilda 26,4 milliard AQSh dollariga, 2024-yilda 41,75 milliard AQSh dollariga baholangan bo‘lib, 2025-yilning yakunida 48,40 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. 2032-yilga kelib esa, bu ko‘rsatkichning yillik o‘sish sur‘ati 16,08%ga oshib, 102,1 milliard AQSh dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda²⁸. Kamaytirilgan xarajatlar, rivojlangan sog‘liqni saqlash tizimi, ilg‘or texnologiyalar, farmatsevtika sohasidagi yangiliklar, texnologik murakkab jihozlar, mehmondo‘stlik va tashrif buyuruvchilarga qaratilgan e‘tibor ushbu bozorning asosiy omillari hisoblanadi. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda hozirgi paytda hududlarning tibbiy turistik salohiyatini aniqlash va tibbiy turizmning o‘ziga xos yo‘nalishlarini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo‘llash mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra har yili sayyohlar tomonidan xorijiy tibbiy va sog‘liqni saqlash xizmatlariga qiziqish bildirilmoqda. Ayniqsa, odamlar o‘z sog‘lig‘ini yaxshilash maqsadida tibbiy yordam izlab, xorijga ko‘proq sayohat qilmoqdalar. Ular boshqa hududlarda o‘z sog‘liqlarini yaxshilash uchun shaxsiy jamg‘armalarining katta qismini doimiy yashash joylaridan tashqarida sarflamoqdalar. Shu bilan birga, tibbiy turist borgan mamlakatiga tashrifi davomida uning ehtiyojlarini har tomonlama qondirish mamlakatlarga bir vaqtning o‘zida turizm xizmatlarining yangi bozorlarini o‘zlashtirish bilan birga, katta budget daromadlarini olish imkonini beradi.

Tibbiy turistik harakatlarning trayektoriyasi qabul qiluvchi va jo‘natuvchi mamlakatlarning farovonlik darajasiga bog‘liq emas. Chunki, tibbiy turistlar iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ham sayohat qilishlari mumkin yoki aksincha. Birinchi holatda turistlar tegishli tibbiy texnologiyalarga ega arzonroq tibbiy xizmatlarni izlaydilar. Ikkinchi holatda esa, ular o‘z mamlakatlarida mavjud bo‘lmagan yoki sifati yuqori bo‘lgan xizmatlarni qidiradilar. Shu sababli jahon tibbiy turizm bozorida sayyohlarni jalb qilish uchun raqobat doimiy ravishda o‘sib borayotgani ajablanarli emas.

Tibbiy turizm so‘nggi yillarda turizm sektorining bir tarmog‘i sifatida juda faol rivojlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning fuqarosi bo‘lgan bemorlar tibbiy yordam olish uchun tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Odamlar o‘z sog‘lig‘iga doimo e‘tiborli bo‘lishi, sog‘lom turmush tarziga intilishi nafaqat o‘z vaqtida davolanish, balki muntazam sog‘lomlashtirish muolajalari, profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tishni ham rag‘batlantiradi. Davolash-profilaktika muassasalari, sanatoriylar va poliklinikalar tomonidan amalga oshirilayotgan turli xil terapevtik, rehabilitatsiya hamda profilaktika muolajalari surunkali yurak-qon tomir, ortopedik, revmatologik va nevrologik kasalliklarga chalingan bemorlarning sog‘ayib ketishiga xizmat qilmoqda. Bunday intilishlar mamlakatlar o‘rtasida sayohatlarni tashkil etish qulayligi bilan bir qatorda tibbiy turizmning ko‘plab mamlakatlarda turizm industriyasining segmenti sifatida o‘sishiga olib keldi.

²⁷ Medical Tourism Statistics // <https://hospitalcmq.com/medical-tourism/statistics/>

²⁸ The size of the medical tourism market // <https://www.gminsights.com/ru/industry-analysis/medical-tourism-market>

Date: 3rd November-2025



O'zbekiston hududida ham tibbiy turizmni rivojlantirish davlat darajasidagi dolzarb masalaga aylangan bo'lib, bunda tibbiy-profilaktika muassasalari, kosmetologik klinikalar, sanatoriy-kurort maskanlari, sport-sog'lomlashtirish markazlari va fitobarlar kabi tibbiyot turizmi infratuzilma obyektlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy iqtisodiyotimizda tibbiy turizm ulushini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, tibbiy turizmni rivojlantirishga maqsadli yondashuv zarurligi taqozo etilmoqda. Bunda, tibbiy turizm sohasida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlashtirish, sohaga doir xorij tajribasini o'rganib uni tatbiq qilish, maxsus preferensiyalarni kiritish, rivojlanish strategiyasini belgilash, professional soha vakillarini tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy izlanishlar davomida hozirgi kunda tibbiy turizmning rivojlanishi iqtisodiyotda o'sish tendensiyalarini ta'minlashga multiplikativ ta'sir orqali hissa qo'shishini inobatga olgan holda sohadagi mavjud bo'lgan asosiy muammo va kamchiliklarni bir qancha guruhlariga bo'lib tahlil qilish mumkin:

iqtisodiy muammolar – tibbiy maqsadlardagi kirish turizmini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy turizmni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha iqtisodiy preferensiyalar joriy qilish;

marketing muammolari – tibbiy turizmni rivojlantirishning marketing omillarini tizimlashtirish va tibbiy turizmni o'rta istiqbolda rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

tashkiliy muammolar – tibbiy turizmni rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rganib chiqish va uni qo'llash, tibbiy turizmga ixtisoslashgan xodimlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish;

huquqiy muammolar – tibbiy turizmning xalqaro miqyosdagi o'sish tendensiyalariga erishishga doir huquqiy kafolatini kuchaytirish²⁹.

Tibbiy turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtayi nazarlar ilgari surilgan. Tibbiy turizmning umumnazariy asoslari ko'pgina xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, jumladan, M.Z. Bukman va K.R. Bukman, Erik Topol, M.D. Horowitz va J.A. Rosensweig, S.O. Vasilyeva, G.Y. Shekin, V.V. Galkin, P.A. Gerasimov hamda R.M. Navodnichiyar o'z tadqiqotlarida tibbiy turizm bo'yicha turli ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ular tomonidan tibbiy turizm atamasiga berilgan ta'riflarni 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Tibbiy turizmning mamlakat rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri hamda uni rivojlantirish masalalari V. Runnels, J. Connell, N. Lunt, J. Hanefeld, R.D. Smith va D.A. Forgione, R. Johnston, S. Gössling, V. Bies va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan (2-jadval).

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A. Eshtayev³⁰, B.Sh. Safarov³¹, A.L. Xayrullayev³², M.M. Toshxodjayev³³, M.T. Aliyeva³⁴, A.M. Abduvohidov³⁵,

²⁹ Talipova M.X. O'zbekiston tibbiy turizmni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 05, May (2025)

³⁰ Eshtayev A.A. Turizm sohasi – milliy iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'idir. 2007.

³¹ Safarov B.Sh. O'zbekiston Respublikasida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion prognozlash / Menejment qiymati va axloqi jurnali. - Gvalior, 2016. - jild. VI No 2.-B.57-72.

³² Xayrullayev A.L. O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirishning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 8-son. 2023-yil.

Date: 3rd November-2025

E.N. Bo‘riboev³⁶, U. Xo‘jaqulov³⁷, B.I. Mammetova³⁸, Y.V. Golishevalar³⁹ tibbiy turizmni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

1-jadval

Tibbiy turizm faoliyatiga berilgan ta‘riflar⁴⁰

Tadqiqotchi olim	Fikr va mulohazalari
Bookman M.Z. va Bookman K.R.	Tibbiy turizm – sog‘lig‘ini yaxshilash maqsadida sayohat qilish, shuningdek, xizmatlar savdosidan iborat bo‘lgan iqtisodiy faoliyat.
Erik Topol	Tibbiy turizm – bu yashash joyidan tashqarida rejalashtirilgan tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish amaliyotini anglatuvchi atama bo‘lib, chet elda dam olish, shu bilan birga, yuqori malakali tibbiy xizmatidan foydalanishdir.
Vasilyeva S.O.	Tibbiy turizm – bu turizmning bir turi bo‘lib, uning maqsadi fuqarolarning xorijda davolanishini tashkil etish hisoblanadi. Tibbiyot turizmi – mamlakatdan tashqarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish amaliyotini va dam olish bilan birlashtiruvchi yuqori malakali tibbiy yordam.
Shekin G.Y.	Tibbiy turizm – turistik xizmatlar orqali amalga oshiriladigan tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadi bo‘lgan turistik faoliyat turi.
Galkin V.V.	Tibbiy turizm ichki va xalqaro turistik xizmatlar bozorining muhim va ajralmas qismidir. Tibbiy turizm deganda tor ma‘noda an‘anaviy ravishda bemorlarning istalgan mintaqa yoki mamlakatdagi davolanish, reabilitatsiya va dam olish joyiga ko‘chishi tushuniladi. Davolanish va reabilitatsiya davomiyligi bir yil bilan cheklangan.

³³ Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmanov D.A., Toshxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2019. –203 b.

³⁴ Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlar: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b;

³⁵ Abduvohidov A., Ruziyev Sh. (2020). Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi. Архив научных исследований, 1(12). // <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1819>

³⁶ Abduvohidov A., Tagayev B., Bo‘riboev E.N. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. – “Mumtoz so‘z” nashriyoti. 2020. -238 bet.

³⁷ Xo‘jaqulov U. Tibbiy turizmning rivojlanish istiqbollari. <https://review.uz/uz/post/tibbiy-turizmning-rivojlanish-istiqbollari>. 2022.

³⁸ Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A. Bo‘stonliq – Toshkent vohasi javohiri. (Ilmiy-ommabop kitob). Toshkent – 2023.

³⁹ Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal. Science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz

⁴⁰ Bookman M.Z. & Bookman K.R. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.

Тополь Э. Будущее медицины: Ваше здоровье в ваших руках. – М.: Альпина нон-фикшн, 2016. – С. 491.
Vasilyeva S.O. Tibbiy turizm [Elektron resurs] // “Tibbiy Internet konferensiyalari”. – 2017. – URL: <https://medconfer.com/node/11863>.

Shekin G.Y. Tibbiyot sotsiologiyasida tibbiy turizm fenomenining konsepsiyasi: dissertatsiya. Sotsiologiya fanlari doktori /; mutaxassis. 02/14/05 [Himoya joyi: Volgograd davlat tibbiyot universiteti]. – Volgograd, 2013. – 309 b.

Galkin V.V. Tibbiy turizm biznes sohasi sifatida [Elektron resurs] /– 2011. // <http://vadimgalkin.ru/articles/medical-business/medical-tourism>.

Gerasimov P.A. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tibbiy xizmatlarni yetkazib berish va iste‘mol qilish xususiyatlari / P.A. Gerasimov // Rossiya tadbirkorligi, 2013. – No 22 (244) / noyabr. – B. 215–244.

Horowitz M.D., Rosensweig J.A. Tibbiy turizm – Jahon iqtisodiyotida sog‘liqni saqlash / M.D. Horowitz, J.A. Rosensweig // IJRO VARCHI, 2007. – Noyabr – URL: <http://web.nchu.edu.tw/pweb/users/hychuo/lesson/5877.pdf>.

Navodnichy R.M. Rossiyada tibbiy va sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish menejmenti: iqt. fan. nomzodi diss .avtoreferat. : 08.00.05 / R.M. Navodnichiy. – Moskva, 2011. – 26 b. Ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Date: 3rd November-2025

Gerasimov P.A.	Tibbiy turizm – bu o‘z mamlakatidan tashqarida tibbiy yordam so‘rab, bemorning belgilangan mamlakatga sayohatini, shuningdek, vizalar/ruxsatnomalar, transferlar va turar joy olishni talab qiladigan faoliyatidir. Tibbiy turizm odatda maslahat yordami, sog‘liqni saqlash muolajalari yoki sog‘lig‘ini saqlash uchun terapevtik reabilitatsiya muassasalariga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi.
Horowitz M.D., Rosensweig J.A.	Tibbiy turizm xalqaro tibbiy sayohatning an‘anaviy modelidan farq qiladi. Bunda bemorlarning tibbiy yordam olish maqsadida rivojlangan mamlakatlardan dunyoning boshqa mintaqalariga odatda arzonroq narxda sayohat qilishi tushuniladi.
Navodnichiy R.M.	Tibbiy turizm deganda yashash mamlakatidan tashqarida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tushuniladi. Ushbu yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyati chet elda dam olishni dunyoning eng yaxshi tibbiy markazlarida yuqori malakali yordam olish bilan birlashtirish imkoniyatidir. Tibbiy turizm, o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi: diagnostik (diagnostika va tekshirish), operatsion (jarrohlik qilish va keyingi davolanish).

Yuqoridagi olimlarning tibbiy turizmga bergan ta’riflaridan kelib chiqib, tibbiy turizm faoliyatiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: tibbiy turizm — bu odamlarning boshqa mamlakatga yoki boshqa shaharga davolanish, diagnostika qilish yoki sog‘liqni tiklash uchun sayohat qilishidir.

Mahalliy tadqiqotchilardan O. Umarov “Tibbiy turizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv”⁴¹ nomli maqolasida dunyo mamlakatlarida mavjud bo‘lgan tibbiy turizmning asosiy turlarini tahlil qilib, uni mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rgangan.

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti direktori Y.V. Golishevaning ta’kidlashicha, tibbiy turizm nafaqat istiqbolli yo‘nalish, balki, iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash va aholi turmush darajasini oshirishning kuchli vositasidir. U butun dunyo odamlari uchun ilg‘or sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi, madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi va milliy sog‘liqni saqlash tizimlarining barqarorligini mustahkamlaydi.⁴²

A.L. Xayrullayev⁴³ “O‘zbekistonda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirishning nazariy asoslari” nomli maqolasida O‘zbekiston iqlimining umumiy tavsifi, harorat, namlik va shamol tasvirlaridan tibbiy turizmga unumli foydalanish yuzasidan tadqiqot olib borgan.

Shuningdek, tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri masalalari yuzasidan ham ko‘pgina chet ellik olimlar o‘z ilmiy izlanishlarini olib borgan bo‘lib, quyidagi jadvalda muallif tomonidan tibbiy turizmning iqtisodiy ta’siriga berilgan ta’riflar mujassamlashtirilgan.

⁴¹ Umarov O., Mirzayeva M. Tibbiy turizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda O‘zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qo‘qon universiteti. 2022-yil.

⁴² Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal. Science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz

⁴³ Xayrullayev A.L. O‘zbekistonda tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirishning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 2024

Date: 3rd November-2025

2-jadval

Tibbiy turizmning iqtisodiy ta'siriga berilgan ta'riflar⁴⁴

Tadqiqotchi olim	Fikr va mulohazalari
V. Runnels	Tibbiy turizmni rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida bemorlarning o'z mamlakatidagi tibbiy xizmatlardan qoniqmaslik sababini ko'rib chiqqan
J. Connell	Tibbiy turizm mamlakat iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'siriga ega bo'lib, undan xorijiy valyuta tushumlari, yangi ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash infratuzilmasi yaxshilanishini ta'kidlab o'tgan
N. Lunt	Tibbiy turizmni iqtisodiy o'sish va bandlik darajasini oshirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqqan
M.Z. Bukman va K.R. Bukman	Tibbiy turizm sog'liqni saqlash tizimining sifatini oshirishga va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Shu bilan birga, mahalliy aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanadi degan fikrni ilgari surgan
J. Hanefeld	Tibbiy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, shuningdek, madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlik rivojlanishini tahlil qilgan
R.D. Smith va D.A. Forgione	Tibbiy turizmning ijtimoiy tengsizliklarga va mahalliy aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirgan
R. Johnston	Tibbiy turizmning salbiy tomonlari, masalan, mahalliy aholining xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, sog'liqni saqlash resurslarining cheklanganligi va etik muammolar ham ko'rib chiqilgan
S.Gössling	Tibbiy turizmning iqtisodiyotga ta'sirini o'lchash uchun ko'plab empirik tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar taqdim etilgan. Bu tadqiqotlar mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha farqlarni ko'rsatadi
V. Bies	Rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tibbiy sayyohlar oqimini tahlil qilar ekan, aynan tibbiy turizm bemorlarga sog'liqni saqlash xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish va tibbiy yordam uchun kutish vaqtini qisqartirish imkoniyatini beradi, degan xulosaga keldi. Biroq ayni paytda chet elda tibbiy xizmatni olishda jiddiy xavflar mavjudligini ta'kidlaydi

⁴⁴ Runnels V. Why do patients engage in medical tourism? // Maturitas. – 2012. – Vol. 73, № 4. – P. 300-304. – doi: 10.1016/j.maturitas.2012.08.011.

Connell J. Medical tourism: Sea, sun, sand and surgery. Routledge. Tourism management. Volume 27, Issue 6, December 2006, Pages 1093-1100

Lunt N. Medical tourism: Treatments, markets and health system implications: A scoping review. OECD Health Working Papers. (2011).

Bookman M. & Bookman K. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.

Hanefeld J. What do we know about medical tourism? A review of the literature with discussion of its implications for the UK National Health Service as an example of a public health care system. Journal of Travel Medicine.

Smith R.D. & Forgione D.A. Global outsourcing of healthcare: Medical tourism and its impact on health systems in the United States. Journal of Health Care Finance. (2007).

Johnston R. Medical tourism and ethical dilemmas: A qualitative study. Journal of Medical Ethics. (2010)

Gössling S. The economic effects of medical tourism: A review of empirical studies. Tourism Management. (2015)

Bies W. Medical tourism: Outsourcing surgery / W. Bies, L. Zacharia // Mathematical and Computer Modelling. – 2007. – Vol. 46, № 7-8. – P. 1144-1159. – doi: 10.1016/j.mcm.2007.03.027.

Date: 3rd November-2025

Yuqorida keltirilgan turli xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tibbiy turizmga hamda uning iqtisodiy ahamiyatiga bergan ta'riflarini umumlashtirgan holda tibbiy turizmning iqtisodiy ta'sirini quyidagicha ta'riflashimiz mumkin:

Tibbiy turizm – tibbiy turizm mamlakatlar iqtisodiyotining turli tarmoqlarini rivojlantirishga, yangi daromad keltiruvchi manbalarni yaratishga va mamlakatning xalqaro miqyosdagi o'rnini mustahkamlashga katta hissa qo'shadigan yo'nalishdir. Uning maqsadi – mamlakatda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasida takomillashtirish, ushbu sohaga zamonaviy texnologiya va jihozlarni tatbiq etish, tibbiyot xodimlarining bilim va malakasini oshirish va ushbu tarmoqni rivojlantirishdan iborat. Tibbiy turizm uchta asosiy toifaga bo'linadi:⁴⁵

1. Sog'lomlashtirish (rekreatsion) – SPA, detoks va kurort muolajalarini o'z ichiga oluvchi sog'lomlashtirish hamda immunitetni oshirish.

2. Tashxis (diagnostika) – aniq tashxis qo'yish va kasallikning klinik kechish xususiyatlarini baholash uchun laboratoriya hamda instrumental usullardan foydalanib bemorni tekshirish.

3. Davolash (terapevtik) – jarrohlik amaliyotini qo'llash, davolanish va reabilitatsiya.

Shunday qilib, tibbiy turizmni targ'ib qilish va rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti va aholining hayot sifatini yaxshilash uchun muhimdir. Tibbiy turizmning iqtisodiy samaradorligini, uning aholi farovonligiga ta'siri va jamiyatning sog'liqni saqlash xizmatlaridan qoniqishi kabi omillar tibbiy turizmni yanada rivojlantirishga bevosita ta'sir qiladi.

Tibbiy turizmning rivojlanishi bilan milliy va xalqaro tashkilotlar tibbiy turizmni tartibga soluvchi qoidalarni ilgari surishdan manfaatdor bo'lib, ular tomonidan bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar imzolangan. Ular bilan quyidagi jadval orqali tanishib chiqishimiz mumkin:

3-jadval

Xalqaro miqyosdagi tibbiy turizm bo'yicha imzolangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar⁴⁶

Xalqaro tashkilot nomi	Me'yoriy-huquqiy hujjat nomi	Imzolangan yili	Ko'zlangan maqsad
Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) (World Health Organization, WHO)	“Sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini ta'minlash va bemorlar xavfsizligini himoya qilish bo'yicha tavsiyalar”. (WHO Guidelines on	2006	Sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish, bemorlar xavfsizligini ta'minlash va sog'liqni saqlash tizimlarida standartlarni joriy etish bo'yicha xalqaro tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Tibbiy turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi muassasalar uchun sifat va xavfsizlik me'yorlarini belgilashda asosiy hujjat

⁴⁵ Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A. Bo'stonliq – Toshkent vohasi javohiri. (Ilmiy-ommabop kitob). Toshkent, 2023-yil.

⁴⁶ Qurbonov N.Q. Tibbiy turizmni rivojlantirishda xalqaro standartlar va davolash usullarini joriy etish. “Medical tourism in the context of globalization - problems, prospects and innovations” II international scientific and practical conference. November 11-12, 2024.

Date: 3rd November-2025

	Quality Assurance and Patient Safety in Health Services)		hisoblanadi.
Xalqaro tibbiy turizm assotsiatsiyasi (International Medical Travel Journal, IMTJ)	IMTJ axloqiy kodeksi (IMTJ Code of Ethics)	2010	Ushbu kodeks tibbiy turizm sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar va xizmat ko'rsatuvchilar uchun axloqiy me'yorlarni belgilaydi. U bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, xizmatlar haqqoniyligi va shaffoflik prinsiplariga rioya qilishni talab qiladi.
Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) (United Nations, UN)	“Bemorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida BMT tavsiya qarori” (UN Resolution on the Protection of Patients' Rights)	2013	Ushbu qaror bemorlarning sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy huquqlarini, jumladan, axborot olish, rozilik berish, maxfiylikni ta'minlash va shikoyat qilish huquqlarini xalqaro miqyosda mustahkamlaydi.
ISO standarti	Xalqaro sog'liqni saqlash turizmi bo'yicha ISO 9001:2015 standarti (ISO 9001:2015 Quality Management Systems – Requirements)	2015	Bu xalqaro standart sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini boshqarish tizimlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun talablarni belgilaydi. Tibbiy turizm muassasalari uchun sifatni doimiy nazorat qilish va yaxshilash mexanizmlarini yaratishda asosiy hujjat hisoblanadi.
Xalqaro qo'shma komissiya (Joint Comission International, JCI)	Xalqaro birlashgan komissiya akkreditat-siya va sertifikat-siyalari (Accreditation and certification of Joint Comission International)	1951	Jahon miqyosida tan olingan tibbiy muassasalar uchun akkreditatsiya tizimi bo'lib, bu muassasalarning bemorlarni davolashda xavfsizligi va samaradorligini tekshiradi. JCI akkreditatsiyasi, tibbiy turizm xizmatlarni taqdim etayotgan muassasalarga xalqaro darajada ishonchni ta'minlaydi.
Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organization, WTO)	JST “Xalqaro savdo va sog'liqni saqlash xizmatlari” bo'yicha kelishuvlar (WTO Agreements on International Trade in Health Services)	2014	Ushbu kelishuvlar tibbiy xizmatlar sohasida xalqaro savdoni tartibga solish, xizmatlar erkin harakatlanishini ta'minlash va sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi hujjatlar tibbiy turizmning xalqaro miqyosda tartibga solinishida asosiy huquqiy va normativ asoslarni tashkil etadi. Ular tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, davolash jarayonlarining samaradorligini va bemorlarning huquqlarini himoya qilish hamda mamlakatlararo hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tibbiy turizm sohasining barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan mazkur sohaga tegishli quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Date: 3rd November-2025

Qonunlar

- O‘zbekiston Respublikasining 18.07.2019-yildagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasining 03.12.2004 yildagi 710-II-son “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni

Farmonlar

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2016-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi-ning turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5611-sonli Farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-sonli Farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2021-yildagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

Qarorlar

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2022-yildagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.09.2024-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-335-sonli Qarori

Konsepsiya

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish” Konsepsiyasi

2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan ning turizmga oid huquqiy-me‘yoriy hujjatlari tasnifi⁴⁷

Yuqoridagi qonun, farmon va qarorlardan ko‘rinib turibdiki, respublikamizning turizm salohiyatini rivojlantirish hamda bu sohaga investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, shu bilan birga, mamlakatimizda turistik ko‘rgazma obyektlari va rekreatsiya zonalari sifati salohiyatidan to‘liq foydalanish ko‘zda tutilgan. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash” bobining 35-maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan⁴⁸:

- “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy turistlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 9 million nafarga yetkazish;

- 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. // <https://lex.uz/uz/>

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

Date: 3rd November-2025

- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish.

Shuningdek, ushbu bobning 55-maqsadida aynan tibbiy xizmatlarni rivojlantirish orqali turizm sohasi daromadini sezilarli darajada oshirish kabi vazifalar maqsad qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda O'zbekistonda tibbiy turizm sohasi sezilarli o'sishni namoyon qilayotgani mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Yurtimizga har yili tibbiy maqsadlarda keluvchilar sonining ko'payishi O'zbekistonning sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha mintaqaviy markaz sifatida obro'si oshib borayotganini tasdiqlamoqda. Bu O'zbekistonning nafaqat qulay, balki xalqaro standartlarga javob beradigan tibbiy yordam ko'rsatishga intilishining isbotidir. Mamlakat rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan tibbiy turizmning yurtimiz uchun strategik ahamiyati e'tirof etilib, keyingi yillarda ushbu yo'nalishni rivojlantirish borasida salmoqli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2024-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida davolash-sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sog'lomlashtirish turizmining o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, buning izohini kelgusida reja qilingan bir qator strategik rejalarda ko'rish mumkin (2-rasm).

Tibbiy xizmatlar mehmondo'stligi" ("Medical service hospitality") dasturini ishga tushirish

"Konsalting – diagnostika – davolash – turoperator – transport – tibbiy tarjimon" qo'shma xizmatlarini ko'rsatuvchi tibbiy turizm klasterlarini yaratish

Davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda sanatoriy va pansionatlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy qilish

"Avitsenna" nomi ostida O'zbekiston Respublikasining tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi brendini ishlab chiqish va uni doimiy ravishda targ'ib qilib borish

Toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish

Tog'li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obyektlari mavjud bo'lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish

2025-yil 1-aprelga qadar internet tarmog'i orqali yashovchilarni hisobga olishning avtomatlashtirilgan maxsus elektron dasturi (E-mehmon)ga ulangan xususiy tibbiyot va sog'lomlashtirish muassasalarini dastlabki 6 oylik abonent to'lovini to'lashdan ozod qilish

Xalqaro qo'shma komissiyadan (Joint Commission International) akkreditatsiyadan o'tgan dastlabki 30 ta xususiy tibbiyot muassasasining akkreditatsiyadan o'tish xarajatlarining 50 foizi Sog'liqni saqlash vazirligining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan qoplab berish

2-rasm. Mamlakatimizda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari⁴⁹

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.09.2024 yildagi PQ-335-sonli "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

Date: 3rd November-2025



Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda tibbiy turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlari faoliyatini joriy qilish, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, respublikamiz sog'liqni saqlash infratuzilmasiga sarmoya kiritishni rag'batlantiradi. Ushbu qarorda ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlarni amaliyotda joriy qilish tibbiy turizm uchun yangi muhim yo'nalishga aylanish yo'lidagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tibbiy turizm amaliyoti so'nggi 15 yil ichida jadal rivojlanayotgan sohaga aylandi. Rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash xizmatlari narxining o'sishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda sog'liqni saqlashning arzon variantlari ko'payib borayotganligi sababli ko'proq odamlar davolanish uchun boshqa mamlakatlarga sayohat qilishni afzal ko'rmoqda. Biroq tibbiy turizm sohasiga oid aniq ma'lumotlarni olish bo'yicha markazlashtirilgan hisobotlarning yetarli emasligi, bu boradagi milliy siyosatning yo'qligi va ko'plab bemorlarning chet elda yoki boshqa joyda davolanganini oshkor qilmaslikni afzal ko'rishi tufayli tibbiy turizm bo'yicha aniq statistik ma'lumot olishda qiyinchiliklar kuzatilmoqda.

Tibbiy turizm nuqtayi nazaridan mamlakatning rivojlanish darajasini baholash usullaridan biri bu tibbiy turizm indeksidir (The Medical Tourism Index, keyingi o'rinlarda – MTI). MTI har bir mamlakatni 0 dan 100 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholaydi, yuqori ball esa tibbiy turizm yo'nalishi sifatida mamlakatning yanada jozibadorligini ko'rsatadi. U 2014-yilda Xalqaro sog'liqni saqlash tadqiqot markazi (International Healthcare Research Center) tomonidan ishlab chiqilgan. Bugungi kunga qadar MTI tomonidan uchta tadqiqot nashr etilgan: 2014–2015-yillar, 2016–2017-yillar va 2020–2021-yillar uchun. Ushbu indeksning asosiy maqsadi tibbiy xizmatlarni olish uchun eng jozibali yo'nalishlarni ajratib ko'rsatishdir. 2020–2021 yillar uchun ma'lumotlar bugungi kunda eng dolzarb bo'lib, ular COVID–19 pandemiyasini ham aks ettiradi. U chet elda davolangan uch mingdan ortiq amerikaliklar o'rtasida o'tkazilgan so'rov asosida yaratilgan. Ushbu respondentlar bazasi faqat AQSh fuqarolariga tegishli bo'lgani uchun uning natijalarining cheklanganligi va hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning subyektivligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga, bunday reyting Osiyo mamlakatlari o'rtasida taqqoslashda tadqiqot uchun foydalidir. Ushbu reyting beshta asosiy ko'rsatkich bo'yicha 46 ta mamlakatning tibbiy turizm imkoniyatlarining batafsil tahlilini taqdim etadi⁵⁰ (2-ilova):

1. *Tibbiy turizm industriyasi:* Bunda mamlakatning tibbiy turizm sanoatining hajmi va raqobatbardoshligi, jumladan, tibbiyot muassasalari soni, tibbiy jihozlarning mavjudligi va tibbiy xizmatlar sifati baholanadi.

2. *Mamlakat muhiti:* Bunda mamlakatning turistik yo'nalish sifatidagi umumiy jozibadorligi, jumladan, mamlakat xavfsizligi, imidji, infratuzilma sifati va mamlakatning siyosiy barqarorligi baholanadi.

⁵⁰ Баев В.В. Стратегический анализ дестинаций на основе использования индекса медицинского туризма // Туризм и гостеприимство. 2019. № 1. С. 12—21.

Date: 3rd November-2025

3. *Tibbiy turizm xarajatlari:* Bunda mamlakatda ko'rsatiladigan tibbiy muolajalar, shu jumladan davolanish, turar joy va transport xarajatlari baholanadi.

4. *Tibbiy turizm imkoniyatlari:* Bunda mamlakatdagi tibbiyot muassasalarining sifati, jumladan, tibbiy texnologiyalarning mavjudligi va tibbiyot mutaxassislarining bilim va malakasi baholanadi.

5. *Tibbiy turizm salohiyati:* Bunda mamlakatning tibbiy turizm industriyasining o'sish salohiyati, jumladan, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy omillari baholanadi.

MTIning 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 46 ta mamlakat tibbiy turizmni o'ziga jalb qilgan bo'lib, ulardan tibbiy turizmning asosiy yo'nalishlari Kanada, Singapur, Yaponiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Dubay, Kosta-Rika, Isroil, Abu-Dabi va Hindiston mamlakatlari bo'lgan.⁵¹

Umuman olganda, MTI tibbiy turizm yo'nalishi sifatida mamlakatning jozibadorligiga hissa qo'shadigan omillarni tushunish uchun foydali ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo vaqt o'tishi bilan reytinglar o'zgarishi mumkin, chunki, mamlakatlar tibbiy turizm sohasini rivojlantirish va uni takomillashtirishda davom etmoqda va global sog'liqni saqlash tizimi ham o'zgarishi tabiiy holatdir.

Tibbiy turizm sohasidagi tadqiqotni samarali amalga oshirish uchun, avvalo, ishonchli va dolzarb statistik ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish muhimdir. Buning uchun Sog'liqni saqlash vazirligi, Turizm qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlaridan foydalanish rejalashtiriladi. Shuningdek, yurtimizda tibbiy xizmatlar eksporti bilan shug'ullanayotgan klinikalar, sanatoriylar va boshqa muassasalar faoliyati, ularning xorijiy bemorlar bilan ishlash tajribasi ham tahlil qilindi.

Tadqiqotni o'tkazish jarayonida soha vakillari, tibbiy xizmatlardan foydalangan xorijiy fuqarolar va turizm tashkilotchilari bilan so'rovnomalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ilmiy izlanishlar uchun zarur bo'lgan texnik sharoitlar — kompyuter, internet aloqasi, statistik tahlil dasturlari (masalan, SPSS, Excel) ham ta'minlanadi. Shu orqali tibbiy turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri chuqur va kompleks tahlil qilinadi.

Shuni qayd etish kerakki, COVID-19 pandemiyasining jahon iqtisodiyotiga ta'siri tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabning sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Tibbiy turizm bozori butun dunyo bo'ylab Pandemiya tufayli eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning yirik tibbiy turizm bozori yo'nalishlari COVID-19 pandemiyasining salbiy ta'siriga duch keldi. Bundan tashqari, global pandemiya tufayli sayohatga jiddiy cheklovlar joriy etildi, bu esa mamlakatlararo sayohatlarning to'xtab qolishiga va global tibbiy turizm bozorining o'sishiga to'sqinlik qildi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, tibbiy turizm bo'yicha ba'zi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular sog'liqni saqlash maqsadida sayohat qiladigan bemorlar soni haqida ma'lumot beradi. Mavjud bo'lgan so'nggi ma'lumotlarga ko'ra (pandemiyadan oldingi davr) ba'zi mamlakatlar kiruvchi va boshqa chiquvchi ma'lumotlarni bemorlarning o'rtacha soni va tibbiy muolajalarning asosiy turlari bilan ifodalaydi.

⁵¹ 2020-2021 MTI Overview // <https://www.medicaltourism.com/mti/home>



Date: 3rd November-2025



Tibbiy turizm mamlakatlar uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratasa-da, u bilan bog'liq bir qancha muammolar ham mavjud bo'lib, tadqiqot davomida ushbu muammolarni o'rganib, tahlil qilib, ularga muqobil yechim topishga harakat qilindi. Hozirgi kunda mamlakatlar tibbiy turizm bilan bog'liq duch kelayotgan muammolarga quyidagi holatlarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Sog'liqni saqlash tizimining yuklanishi. Tibbiy turizmning rivojlanishi bilan birga mahalliy aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklar yuzaga kelish mumkin. Masalan, xorijiy bemorlar ko'pligi sababli mahalliy aholi uchun navbatlar uzayishi yoki xizmat sifati pasayishi ehtimoli mavjud.

2. Resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi. Tibbiy turizmga qaratilgan resurslar (malakali xodimlar, tibbiyot asbob-uskunolari, dorilar) asosan xorijiy bemorlarga mo'ljallangan bo'lib mahalliy aholiga xizmat ko'rsatishda resurslarning yetishmasligiga olib kelishi mumkin.

3. Tibbiy xizmatlar narxining o'sishi. Tibbiy turizm rivojlanishi bilan birga tibbiy xizmatlarning narxlari ko'tarilishi mumkin, buning natijasida, mahalliy aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kamayadi.

4. Sifat nazoratining qiyinlashuvi. Ko'p sonli xorijiy bemorlarni qabul qilish jarayonida xizmat sifatini doimiy nazorat qilish murakkablashishi mumkin. Bu esa klinikalar orasida raqobatni kuchaytirib, sifatning pasayishiga olib kelishi mumkin.

5. Madaniy va til to'siqlari. Chet ellik bemorlar bilan ishlashda ularning madaniyati orasidagi farqlar va til to'siqlari yuzaga kelishi, bu esa xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sir qilishi mumkin.

6. Ijtimoiy tengsizlik. Tibbiy turizmning rivojlanishi natijasida tibbiy xizmatlarning ayrim turlari faqat boy va xorijiy bemorlarga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bu esa bemorlar orasida ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi.

7. Qonuniy va etik muammolar. Tibbiy turizm sohasida qonuniy tartibga solishning yetishmasligi, noto'g'ri xizmat ko'rsatish yoki firibgarlik holatlari ham yuzaga kelishi mumkin.

Yurtimizda tibbiy turizm sohasida mavjud bo'lgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni samarali boshqarish uchun turli tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Ular quyidagicha klassifikatsiyalandi:

Sohaga investitsiyalarni kiritish uchun qulay sharoitlar yaratish. Tibbiy turizmni rivojlantirish uchun zamonaviy klinikalar va innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritish zarur. Buning uchun mahalliy va xorijiy investorlarga qulay shart-sharoit yaratish ushbu sohaning tez rivojlanishini ta'minlashi mumkin.

Xalqaro hamkorlik va sifat standartlarini joriy etish. Tibbiy xizmatlarni xalqaro sertifikatlash tizimi va xalqaro hamkorlik aloqalari O'zbekistonning tibbiy turizm sohasi bo'yicha jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlashga ko'mak beradi.

Tibbiy turizm xizmatlarini raqamlashtirish. Bemorlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy qilish: telemeditsina, onlayn maslahatlar, elektron navbat, tibbiy kartalar va turistik paketlar tibbiy xizmatlarning qulayligini oshiradi.

Date: 3rd November-2025

Samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish. O'zbekistonni tibbiy turizm markazi sifatida jahon miqyosida targ'ib qilish, xalqaro ko'rgazmalar va onlayn platformalar orqali xorijiy bemorlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir so'z bilan aytganda, tibbiy turizm yo'nalishida kiruvchi turistik oqimni rag'batlantirish vositalarini takomillashtirish masalasiga doir ilmiy-metodologik bazaning chuqur tadqiq qilinishi obyektiv zaruratga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo uchun ham turizm, ham tibbiyot sohasining yangi qirralarini ochishda turtki bo'ladi. Albatta, turizmning har bir tarmog'i vatanimizning ravnaq topishi, yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallashida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda tibbiy turizmning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotini va nufuzini katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.09.2024 yildagi PQ-335-sonli "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. // <https://lex.uz/uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
4. Talipova M.X. O'zbekiston tibbiy turizmni innovatsion rivojlantirish istiqbollari. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 8, Issue 05, May (2025)
5. Eshtayev A.A. Turizm sohasi – milliy iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'idir. 2007.
6. Safarov B.Sh. O'zbekiston Respublikasida milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion prognozlash / Menejment qiymati va axloqi jurnali. - Gvalior, 2016. - jild. VI No 2.-B.57-72.
7. Xayrullayev A.L. O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirishning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 8-son. 2023-yil.
8. Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmanov D.A., Toshxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T.: IQTISODIYOT, 2019. –203 b.
9. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt. fan. dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b;
10. Abduvohidov A., Ruziyev Sh. (2020). Turizm rivojlanishining tahlili va prognozi. Архив научных исследований, 1(12). // <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1819>
11. Abduvohidov A., Tagayev B., Bo'riboyev E.N. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. – "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2020. -238 bet.
12. Xo'jaqulov U. Tibbiy turizmning rivojlanish istiqbollari. <https://review.uz/uz/post/tibbiy-turizmning-rivojlanish-istiqbollari>. 2022.

Date: 3rd November-2025

13. Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A. Bo'stonliq – Toshkent vohasi javohiri. (Ilmiy-ommabop kitob). Toshkent – 2023.
14. Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal. Science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz
15. Bookman M.Z. & Bookman K.R. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.
16. Тополь Э. Будущее медицины: Ваше здоровье в ваших руках. – М.: Альпина нон-фикшн, 2016. – С. 491.
17. Vasilyeva S.O. Tibbiy turizm [Elektron resurs] // "Tibbiy Internet konferensiyalari". – 2017. – URL: <https://medconfer.com/node/11863>.
18. Shekin G.Y. Tibbiyot sotsiologiyasida tibbiy turizm fenomenining konsepsiyasi: dissertatsiya. Sotsiologiya fanlari doktori: /; mutaxassis. 02/14/05 [Himoya joyi: Volgograd davlat tibbiyot universiteti]. – Volgograd, 2013. – 309 b.
19. Galkin V.V. Tibbiy turizm biznes sohasi sifatida [Elektron resurs] /– 2011. // <http://vadim-galkin.ru/articles/medical-business/medical-tourism>.
20. Gerasimov P.A. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tibbiy xizmatlarni yetkazib berish va iste'mol qilish xususiyatlari / P.A. Gerasimov // Rossiya tadbirkorligi, 2013. – No 22 (244) / noyabr. – B. 215–244.
21. Horowitz M.D, Rosensweig J.A. Tibbiy turizm – Jahon iqtisodiyotida sog'liqni saqlash / M.D. Horowitz, J.A. Rosensweig // IJRO VARCHI, 2007. – Noyabr – URL: <http://web.nchu.edu.tw/pweb/users/hychuo/lesson/5877.pdf>.
22. Navodnichy R.M. Rossiyada tibbiy va sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish menejmenti: iqt. fan. nomzodi diss .avtoreferat. : 08.00.05 / R.M. Navodnichiy. – Moskva, 2011. – 26 b. Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
23. Umarov O., Mirzayeva M. Tibbiy turizmning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuv. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qo'qon universiteti. 2022-yil.
24. Медицинский туризм: главные тенденции и перспективы роста. Special issue of international scientific journal. Science and innovation. November 2024 | issn: 2181-3337 | scientists.uz
25. Xayrullayev A.L. O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini samarali rivojlantirishning nazariy asoslari. Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. 2024
26. Runnels V. Why do patients engage in medical tourism? // Maturitas. – 2012. – Vol. 73, № 4. – P. 300-304. – doi: 10.1016/j.maturitas.2012.08.011.
27. Connell J. Medical tourism: Sea, sun, sand and surgery. Routledge. Tourism management. Volume 27, Issue 6, December 2006, Pages 1093-1100
28. Lunt N. Medical tourism: Treatments, markets and health system implications: A scoping review. OECD Health Working Papers. (2011).
29. Bookman M. & Bookman K. Medical Tourism in Developing Countries. New York: Palgrave MacMillan, 2007.



Date: 3rd November-2025

30. Hanefeld J. What do we know about medical tourism? A review of the literature with discussion of its implications for the UK National Health Service as an example of a public health care system. *Journal of Travel Medicine*.
31. Smith R.D. & Forgione D.A. Global outsourcing of healthcare: Medical tourism and its impact on health systems in the United States. *Journal of Health Care Finance*. (2007).
32. Johnston R. Medical tourism and ethical dilemmas: A qualitative study. *Journal of Medical Ethics*. (2010)
33. Gossling S. The economic effects of medical tourism: A review of empirical studies. *Tourism Management*. (2015)
34. Bies W. Medical tourism: Outsourcing surgery / W. Bies, L. Zacharia // *Mathematical and Computer Modelling*. – 2007. – Vol. 46, № 7-8. – P. 1144-1159. – doi: 10.1016/j.mcm.2007.03.027.
35. Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A. Bo'stonliq – Toshkent vohasi javohiri. (Ilmiy-ommabop kitob). Toshkent, 2023-yil.
36. Баев В.В. Стратегический анализ дестинаций на основе использования индекса медицинского туризма // *Туризм и гостеприимство*. 2019. № 1. С. 12—21.
37. 2020-2021 MTI Overview // <https://www.medicaltourism.com/mti/home>
38. Medical Tourism Statistics // <https://hospitalcmq.com/medical-tourism/statistics/>
39. The size of the medical tourism market // <https://www.gminsights.com/ru/industry-analysis/medical-tourism-market>

